TOSHKENT SHAHRI UCHTEPA TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 8-noyabr | 249-14-202-Q/24 | Uchtepa tuman hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekison Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunning 32 va 34-moddalariga va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan tumanda 2025-yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekison Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunning 32 va 34-moddalariga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun xodimlarning o‘rtacha soni 20 nafardan ko‘pni tashkil etadigan korxona, muassasa va tashkilotlarda 2025-yil uchun 3 foizdan 10 foizgacha jami 677 ta kvota ish o‘rinlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Shu jumladan:

o‘n to‘rt yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz ota yoki ona, yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun (117 kishi);

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun (237 kishi);

safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun (105 kishi);

nogironligi bor shaxslar uchun (37 kishi);

pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun (152 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga koʻra tibbiy tusdagi majburlov choralari qoʻllanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun (22 kishi);

odam savdosi qurbonlari uchun (7 kishi);

2. Ushbu toifa shaxslar uchun ish oʻrinlari xodimlar tomonidan oʻzlarining mehnat majburiyatlarini toʻsiqlarsiz bajarishini ta'minlaydigan sanitariya-gigiyena normalari va mehnat sharoitlariga muvofiq boʻlishi ta'minlansin, xususan;

yolgʻiz ota, yolgʻiz ona va 14 yoshgacha boʻlgan nogiron bolalari bor koʻp bolali ota-onalar uchun bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari boʻyicha vazifalarni uygʻunlashtirish imkonini beradigan, oʻzgaruvchan ish jadvaliga ega boʻlgan ish oʻrinlari;

oʻrta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini tamomlagan yoshlarga, shuningdek oliy oʻquv yurtlarining davlat grantlari asosida ta'lim olgan bitiruvchilari uchun - ularning kasb boʻyicha tayyorgarligiga muvofiq boʻlgan ish oʻrinlari;

Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridan muddatli harbiy xizmatdan boʻshatilganlar uchun - ularning kasb boʻyicha tayyorgarligiga muvofiq boʻlgan ish oʻrinlari;

nogironlar uchun - mehnat sharoitlari boʻyicha attestatsiyadan oʻtkazilgan hamda xodimga ish jarayonlarini toʻsqinliksiz bajarish imkonini (sogʻligʻining ahvoli va mehnat faoliyatiga nisbatan belgilangan zid koʻrsatkichlar hisobga olingan holda) beradigan ish oʻrinlari;

tuman Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish bo'limi ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslar uchun - maxsus malakani talab qilmaydigan ish oʻrinlari;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga koʻra tibbiy yoʻsindagi majburlov choralariga tortilgan shaxslar uchun - ularning kasb boʻyicha tayyorgarligi hisobga olingan holdagi ish oʻrinlari, muayyan kasb-hunarga, malakaga ega boʻlmagan shaxslar uchun esa - maxsus malakani talab qilmaydigan ish oʻrinlari;

odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun - ularning kasb boʻyicha tayyorgarligiga muvofiq boʻlgan ish oʻrinlari.

3. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun band qilib qoʻyilgan ish oʻrni ilgari ushbu ish oʻrnini egallab kelgan shaxs bilan tuzilgan mehnat shartnomasi toʻxtatilishi munosabati bilan boʻshab qolganda bu haqida tashkilot 10 kun muddatda tuman Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish bo'limini yangidan ochilgan boʻsh ish oʻrni toʻgʻrisida xabardor etishi belgilansin.

4. Mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha korxona, muassasa va tashkilotlar rahbarlari Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlarini band qilib qoʻyish tartibi toʻgʻrisida"gi Nizomga muvofiq ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun

ish o‘rinlarini belgilangan soni hisobida boshlangungacha 10 kundan kechikmay 25 foiz, qolgan qismini band qilib qo‘yishni keyingi kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlasinlar.

Tashkilotlar har oyda tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo’limiga ushbu toifadagi shaxslarni ishga joylashtirilishi to‘g‘risida belgilangan tartibda axborot taqdim etsinlar.

5. Ushbu qarorni bajarmagan tashkilotlarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlik masalasi ko‘rilsin.

Belgilab qo‘yilsinki, mahalliy davlat hokimiyati organining ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish bo‘yicha qarorini bajarmaganlik uchun javobgarlik, tashkilotni band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini tashkil etishdan ozod qilinmasligi inobatga olinsin.

6. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun band qilib qo‘yish sonidan ortiqcha ish o‘rinlari tashkil etilgan taqdirda sarflangan mablag‘larning bir qismini tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo’limi bilan tuzilgan shartnoma asosida Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplanishi belgilansin.

7. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo’limi bir hafta muddatda ushbu qarorni, ilovada ko‘rsatilgan tashkilot rahbarlari e’tiboriga yetkazsin hamda mazkur qarorning bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

8. Vazirlar Mahkamasining 965-sonli Qarorining 2-ilovasiga muvofiq komissiya tarkibi tasdiqlansin.

9. Tuman hokimining 2024-yil 28-noyabrbdagi 221-14-202-Q/23-sonli Qarori 2025-yil 1-yanvardan boshlab bekor qilinsin.

10. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

11. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari J.Alimdjanov zimmasiga yuklatilsin.

Uchtepa tumani hokimi **B.Mamadjanov**

Uchtepa tuman hokimining
2024-yil 8-noyabrdagi
249-14-202-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Uchtepa tumanida Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha komissiya tarkibi

Maxsus komissiya raisi:

Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari	J.Alimdjanov

Maxsus komissiya a’zolari:

Tuman hokimining o‘rinbosari oila va xotin-qizlar qo‘mitasi boshlig‘i	M.Aripova
Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘lim boshlig‘i	J.Sadikov
Tuman hokimi yuriskonsult	M.Choriyev

Komissiya kotibi:

Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘lim boshlig‘i o‘rinbosari	S. Xayrulloyev

Uchtepa tuman hokimining
2024-yil 8-noyabrdagi
249-14-202-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Uchtepa tumanida ijtimoiy muhofazaga muxtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun 2025 yilga ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida ro‘yxat

T/R	Korxona-tashkilot va muassasalar nomi	INN	Shtat jadvali asosida ishlovchilar soni	Zaxiraga qo‘yilgan maxsus ish o‘rinlarining band qilingani soni	SHU JUMLADAN						
					Mehnatga layoqatli nogironligi bor fuqarolar uchun	Ta’lim muassasasini tugatgan yoshlar uchun	BKBda ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslar uchun	Muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun	Yolg‘iz ota, yolg‘iz ona xamda 14 yoshgacha va nogiron bolalari bor ko‘p bolali ota-onalar uchun	JIEMlardan bo‘shatilgan, jazoni o‘tayotgan yoki sud qaroriga ko‘ra tibbiy xarakterdagi majburiy choralar ko‘rilgan shaxslar uchun	Odam savdosidan jabirlanganlar uchun
1	4 -sonli maktab	203812484	61	5		2	1	1	1		
2	14 - sonli maktab	300448160	56	4		1	1	1	1		
3	44 - sonli maktab	300448192	144	10	1	6	1	1	1		
4	74 - sonli maktab	300448217	110	8	1	4	1	1	1		
5	106 - sonli maktab	300448249	84	6		2	1	1	2		

6	109 - sonli maktab	300448256	76	6		3	1	1	1		
7	116 - sonli maktab	203209173	172	12	1	6	2	1	2		
8	129 - sonli maktab	300448271	98	7	1	2	1	1	2		
9	203 - sonli maktab	300449420	140	10	1	5	2	1	1		
10	228 - sonli maktab	300449777	128	9	1	5	1	1	1		
11	238 - sonli maktab	300450026	166	12	1	8	1	1	1		
12	283 - sonli maktab	300450231	120	9	1	5	1	1	1		
13	295 - sonli maktab	203256994	108	8	1	4	1	1	1		
14	Uchtepa tumani Maktabgacha ba maktab ta'limi bo'limi	201518850	49	4		1	1	1	1		
15	Respublika Ixtisoslashtirilgan Ko'z mikroxirurgiyasi ilimiy-amaliy instituti	200541105	182	13	1	4	3	2	3		
16	Respublika Ixtisoslahstirilgan Epidemiologiya va mikrobiologiya ilmiy-tekshirish instiruri	201266422	250	18	1	6	6	3	2		

17	3-son Shahar Bolalar klinik shifoxonasi	201266454	450	32	2	17	5	4	2	1	1
18	17-son Davlat Maktabgacha ta'lim tashkiloti	300920785	23	2			1		1		
19	178-son Davlat Maktabgacha ta'lim tashkiloti	300882540	34	3		1	1	1			
20	207-son Davlat Maktabgacha ta'lim tashkiloti	300873773	31	3		1		1	1		
21	244-son Davlat Maktabgacha ta'lim tashkiloti	300874384	53	4		1	1	1	1		
22	604-son Davlat Maktabgacha ta'lim tashkiloti	204139584	66	5		1	1	1	1	1	
23	334-son Davlat Maktabgacha ta'lim tashkiloti	300948132	59	5		1	1	1	1	1	
24	346-son Davlat Maktabgacha ta'lim	300872728	60	5		1	2	1	1		

	tashkiloti										
25	360-son Davlat Maktabgacha ta'lim tashkiloti	300872704	55	4		1	1	1	1		
26	361-son Davlat Maktabgacha ta'lim tashkiloti	300873797	55	4		1	1	1	1		
27	365-son Davlat Maktabgacha ta'lim tashkiloti	300872695	53	4		1	1	1	1		
28	386-son Davlat Maktabgacha ta'lim tashkiloti	300876516	47	4		1	1	1	1		
29	409-son Davlat Maktabgacha ta'lim tashkiloti	300872671	58	4		1	1	1	1		
30	411-son Davlat Maktabgacha ta'lim tashkiloti	300872711	60	5		1	2	1	1		
31	436-son Davlat Maktabgacha ta'lim tashkiloti	300871586	60	5		2	1	1	1		

32	453-son Davlat Maktabgacha ta'lim tashkiloti	300871530	61	5		1	2	1	1		
33	505-son Davlat Maktabgacha ta'lim tashkiloti	300871619	60	5		1	2	1	1		
34	Uchtepa tumani Tibbiyot birlashmasi	300156114	676	48	2	15	14	6	8	2	1
35	24-son Oilaviy poliklinika	203734384	198	14	1	5	3	2	3		
36	25-son Oilaviy poliklinika	204886543	174	13	1	3	3	2	3	1	
37	26-son Oilaviy poliklinika	204900905	158	11	1	3	3	1	2	1	
38	Toshkent Tez tibbiy yordam klinik shifoxonasi	201266217	857	60	3	23	14	9	11		
39	Uchtepa tumani Boalalar stomatologik poliklinikasi	204946278	182	13	1	4	4	2	2		
40	O'zbekiston Davlat Jahon tillari univeristeti	201669664	1406	99	3	29	28	14	21	3	1

41	Toshkent shahar sog'liqni saqlash bosh boshqarmasi Maxsuslashtirilgan avtoxo'jaligi DUK	201266367	504	38	2	15	8	5	5	2	1
42	Uchtepa tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	201266414	519	37	2	11	10	4	5	4	1
43	MCHJ "O'rikzor savdo kompleksi"	301543613	247	18	2	6	2	4	4		
44	"18-Avtobus saroyi" MCHJ	201042321	486	34	2	9	9	6	4	3	1
45	AJ "Farxod Dehqon bozori"	200984661	64	5		1	2	1	1		
46	MCHJ "BOGISTON-NON"	201609104	105	8	1	3	1	2	1		
47	MCHJ "MILK HOUSE"	303783550	386	27	2	10	0	7	5	3	
48	MCHJ "JACKSOFT MEDICAL DIAGNOSTICS SERVICES"	300895872	168	12	1	3	2	2	3		1
	JAMI:		**9359**	**677**	**37**	**237**	**152**	**105**	**117**	**22**	**7**